

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.11.2022.FM/T.66.04 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI  
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**QURBONALIYEV QOBILJON QOSIMJON O‘G‘LI**

**KREMNIY SIRTIDAGI MARGANES OLIY SILITSIDINING  
ELEKTROFIZIK VA FOTOTERMIK XUSUSIYATLARI**

**01.04.10 – Yarimo‘tkazgichlar fizikasi**

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Namangan-2024**

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
физика-математическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
physical-matematical sciences**

**Qurbonaliyev Qobiljon Qosimjon o'g'li**

Кремний sirtidagi marganes oliy silitsidining elektrofizik va fototermik  
xususiyatlari ..... 3

**Курбаналиев Кабилджан Касимджан угли**

Электрофизические и фототермические свойства высших силицидов  
марганца на поверхности кремния..... 23

**Kurbonaliev Kobiljon Kosimjon ugli**

Electrophysical and photothermal properties of higher manganese silicides  
on the silicon surface..... 45

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 49

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.11.2022.FM/T.66.04 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI  
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**QURBONALIYEV QOBILJON QOSIMJON O‘G‘LI**

**KREMNIY SIRTIDAGI MARGANES OLIY SILITSIDINING  
ELEKTROFIZIK VA FOTOTERMIK XUSUSIYATLARI**

**01.04.10 – Yarimo‘tkazgichlar fizikasi**

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Namangan-2024**

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalari vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/FM986 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Muqimiy nomidagi Qo'qon davlat pedagogika instituti va Toshkent davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasiga ([www.nammti.uz](http://www.nammti.uz)) va Ziyonet Axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Xusanov Axmadjon Jo'rayevich**  
fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Dadamirzayev Muxammadjon G'ulomqodirovich**  
fizika-matematika fanlari doktori, professor,

**Arzikulov Eshkuvat Ulashevich**  
fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Qoraqalpoq davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Namangan muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.11.2022.FM/T.66.04 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil "22" iyun soat 10<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160115, Namangan shahri, Kosonsoy ko'chasi, 7-uy. Tel./faks: (99869) 225-10-07; (99869) 225-76-75, e-mail: [niei\\_info@edu.uz](mailto:niei_info@edu.uz), Namangan muhandislik-texnologiya instituti 3-bino, 1-qavat, ilmiy kengash xonasi).

Dissertatsiya bilan Namangan muhandislik-texnologiya institutiining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. ( 291 raqam bilan ro'yxatga olingan.) Manzil: 160115, Namangan shahri, Kosonsoy ko'chasi, 7-uy. Tel: (99869) 225-10-07.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil "12" iyunda tarqatildi.  
(2024 yil "12" iyundagi № 13 raqamli reestr bayonnomasi.)

**U.I. Erkaboyev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash raisi, f.-m.f.d., professor

**A.A. Abdulkarimov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash ilmiy kotibi, PhD, dotsent

**N.Yu.Sharibayev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
f.-m.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda, qayta tiklanuvchi energiya manbalari ichida istiqboli bilan ajralib chiqadigan tejamkor, tannarxi arzon termobateriyalarni yaratish bo'yicha ko'plab tadqiqotlarni olib borish va ularni iqtisodiyotning barcha sohalarida qo'llash elektronikaning yetakchi yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda. Xususan, olimlar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilayotgan marganes oliy silitsid – kremniy strukturali termobataryalar o'zining qisqa vaqtda taraqqiyot yo'lidagi yuqori natijalarga erishmoqda. «Energiya tejamkor, tannarxi arzon, ekologik jihatdan toza va samarador bo'lgan termobataryalar yaratishni» hamda ularni amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Ayniqsa, zamonaviy elektron qurilmalarni ishlab chiqarishdagi texnologiyalar takomillashib borgani sari elektrofizik parametrlari tashqi ta'sirlarga chidamli yarimo'tkazgich materiallarni hamda ular asosida ishlab chiqilgan asbob va qurilmalarni amaliyotga joriy etish ko'lami ortib bormoqda. Energiya tejamkor yarimo'tkazgich qurilmalar asosida yaratilgan sovitish texnik vositalari, kulerlar va boshqa qurilmalar qatorida kremniy asosida yaratilgan marganes oliy silitsid – kremniy strukturali termobataryalardan foydalanish kunning dolzarb masalalaridan hisoblanmoqda.

Jahon miqyosida, marganes oliy silitsid – kremniy strukturasi asosida yaratilgan termobataryalardan kichik qiymatdagi kuchlanish manbalari, kichik o'lchamdagi mikrosovutgichlarni, sezgirligi yuqori va inersiyasi kichik bo'lgan keng infraqizil nurlanish spektri oralig'ida ishlovchi sezgir fotopriyomniklarni issiqlikni o'lchovchi harorat datchiklarni ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada marganes oliy silitsid – kremniy strukturasi asosida termobataryalar va infraqizil nur fotopriyomniklarni yaratishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda ilm – fan rivojiga, yarimo'tkazgich materiallar asosida yaratilgan energiya tejamkor asboblari va qurilmalarning, jumladan, termobateriyalarning parametrlarini takomillashtirish va tadqiq etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatimizda ilm-fanni rivojlantirish va uni amaliyotda qo'llashdagi muhim ahamiyatga ega bo'lgan fundamental tadqiqotlar negizida 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan “Iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta'minlash hamda “Yashil iqtisodiyot” texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20% ga oshirish”<sup>1</sup> kabi bir qator vazifalar belgilab berilgan. Xususan, marganes oliy silitsid-kremniy asosida yaratilgan termobateriyalarning elektrofizik va fototermik xossalari ochib berish imkoniyatini o'rganish muhim ahamiyatga ega bo'lishi bilan bir qatorda qo'yilgan vazifalarni bajarishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 9 sentyabrdagi PF-220-son “Energiya tejovchi texnologiyalarni joriy qilish va kichik quvvatli qayta tiklanuvchi

---

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to'g'risidagi Farmoni

energiya manbalarini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni, 2021 yil 9 apreldagi PQ-5063-son "O'zbekiston Respublikasida qayta tiklanuvchi va vodorod energetikasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021 yil 19 martdagi PQ-5032-son "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" hamda 2020 yil 10 iyuldagi PQ-4779-son "Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg'i-energetika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya ishi, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining III. "Energiya, energiya resurslarini tejash, transport, raketa va kosmik texnikasi, aviatsiya, robototexnika, mashinasozlik va asbobsozlik, zamonaviy elektronika, mikroelektronika, fotonika, elektron asbobsozlikni rivojlantirish" dagi ustuvor yo'nalishlarga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Marganes oliy silitsid – kremniy tizimini o'rganish bo'yicha so'nggi yillarda dunyodagi olimlar va mutaxassislar ko'plab tadqiqotlar olib bormoqdalar. Amerikalik olimlar I.Boren va A.Fogel hamda germaniyalik olim M.Binneves va boshqalarning ilmiy maktablarida marganes silitsidlarining hosil bo'lishidagi fazalar o'tishi, yarimo'tkazgich materiallar, shu jumladan, kremniy sirtida hosil bo'lgan silitsidda marganes atomlarining turli xil konsentratsiyada bo'lishi va ular hosil bo'lgan marganes silitsidlarining elektrofizik hamda fizik-kimyoviy xususiyatlarini kuchli ta'sir qilishi ko'rsatib berilgan.

Rossiyalik olimlardan V.K.Zaysev<sup>2</sup> (Fizika-texnika instituti, Sankt-Peterburg), O.S.Orexov<sup>3</sup> (Kristolografiya instituti, Moskva sh.), F.Yu.Solomkin (Fizika-texnika instituti, Sankt-Peterburg sh.), V.V.Klechkovskaya (Kristolografiya instituti Moskva sh.) L.I.Petrova (Metallurgiya instituti, Moskva sh.), O.N.Gruba (janubiy Ural davlat universiteti, Chelyabinsk sh.) tomonidan kremniy sirtida marganes atomlari 13 xildan ortiq silitsidlarni hosil qilishi, ularni ichida eng ko'p tarqalgani Mn<sub>4</sub>Si<sub>7</sub> tarkibidagi marganes oliy silitsidi ekanligi va uning elektrofizik xususiyatlari yarimo'tkazgich materiallar singari bo'lishini aniqlaganlar.

Rossiyaning (Sankt-Peterburg sh) Fizika-texnika institutining olimlari M.I.Fedorov, V.K.Zaysev va boshqalar tomonidan kremniyga metall o'tish guruhining atomlarini kiritish orqali hosil qilgan silitsid qatlamlar asosida termoelektrik elementlarni yaratish texnologiyalari hamda ularni amaliyotda foydalanish sohalari ko'rsatib berilgan.

---

<sup>2</sup> Zaysev V.K., Tarasov V.I., Adilbekov A.A. Perexod metall – nemetall v kompensirovannom visshem silitside margansa. //FTT. 1976. T. 16. Vip 3.s.581 – 584.

<sup>3</sup> Orexov A.S., Kamilov T.S., Gaipov A.G., Vaxabov K.I., Klechovskaya V.V. //JTF, 2010, tom 80, vip 6, s. 121 – 124

O‘zbekistonlik olimlardan akademiklar M.S.Saidov, R.A.Mo‘minov, A.T.Mamadolimov, M.K.Bahodirxonov va S.Zaynobiddinov hamda taniqli professorlar A.Qosimoxunova, T.Komilov, X.K.Aripov, K.A.Abdurahmonov va Sh.B.Utamurodovning ilmiy maktablarida yarimo‘tkazgich materillarning olish texnologiyasini mukammallashtirish, ularning elektrofizik, fotoelektrik va optik xususiyatlarini har tomonlama o‘rganish, hamda bu materiallar asosida yaratilgan qurilmalarni amliyotga tadbiq etishdagi imkoniyatlar ko‘rsatib berilgan. Bu ilmiy ishlar dunyoga tanilgan xorijiy olimlar tomonidan e’tirof etilgan yarimo‘tkazgich materiallar asosida termobataryalarni yaratishda A.Qosimoxunova, T.Komilov va A.Risbayevning ilmiy maktablarida ahamiyatga loyiq ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Mazkur tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan termobateriya va termoelementlarning muayyan darajada ijobiy natijalarga erishilgan holda ishlab chiqarishida qo‘llanilib kelinayotgan bo‘lsada, ammo ularning element tarkibi yetarli darajada inobatga olib o‘rganilmagan va marganes oliy silitsidini kremniy sirtida shakllanishining fizik mexanizmi yaratilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya ishi Qo‘qon davlat pedagogika institutining ilmiy tadqiqotlar negizida hamda Toshkent davlat texnika universitetining “Raqamli elektronika va mikroelektronika” kafedrasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar bazasida hamda Toshkent davlat texnika universitetining “Umumiy fizika” kafedrasida O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan mablag‘lashtirilgan F–OT–2021–422–raqamli “Nanoo‘lchamli termoelektrik  $BaSi_2$  va  $Mn_4Si_7$  plyonkalarini hosil bo‘lishi va ularning xossalari” mavzusidagi fundamental ilmiy tadqiqot loyihasi (2021-2022 yy.) doirasida amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Marganes oliy silitsid – kremniy strukturasi olishning takrorlanuvchi texnologiyasini yaratish hamda ular asosidagi termobataryalarning elektrofizik va fototermik xususiyatlarini o‘rganishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

monokristall kremniy sirtida marganes oliy silitsidi qatlamini olish va olingan qatlam tarkibidagi marganes kirishma atomlarining konsentratsiyasini boshqarishning termodinamik shartlari va texnologik bosqichlarini aniqlash;

monokristall kremniy sirtida o‘stirilgan marganes oliy silitsididagi marganes atomlarining miqdorini hamda silitsid qatlamining qalinligi va qattiq faza holatini boshqarib,  $Mn_xSi_{1-x} - Si < Mn > - Mn_xSi_{1-x}$  tuzilishidagi strukturalarni olishning takrorlanuvchi texnologiyasini yaratish;

marganes oliy silitsid – kremniy o‘tish chegarasida haroratni elektr kuchlanishga aylantirish koeffitsiyenti  $\alpha$ -ning qiymatiga infraqizil nurlanishning ta’sirini o‘rganish;

marganes oliy silitsidining elektrofizik parametrlarini keng harorat  $T = 77 \div 900K$  oralig‘ida o‘rganib termoelektr yurituvchi kuchlanish koeffitsiyentining qiymatini aniqlash va samaradorligi yuqori bo‘lgan termobataryalarning yaratish imkoniyatlarini ochib berish;

kremniy asosida olingan marganes oliy silitsidining elektrofizik va fototermik parametrlarini tadqiq etib, termoelektr kuchlanishni hosil bo'lishining fizik mexanizmini yaratish;

monokristall kremniy sirtida hosil qilingan marganes oliy silitsidi asosida haroratni elektr kuchlanishiga aylantiruvchi samaradorligi yuqori bo'lgan termobatareyalar va sezgirligi yuqori bo'lgan infraqizil nur fotopryomniklarni yaratish imkoniyatlarini ko'rsatib berish.

**Tadqiqotning ob'ekti** Choxralskiy usuli bilan o'stirilgan monokristall kremniy sirtida hosil qilingan marganes oliy silitsidi tanlab olingan.

**Tadqiqotning predmeti** marganes atomlari bilan legirlangan monokristall kremniy sirtida hosil qilingan marganes oliy silitsidining elektrofizik va fototermik xususiyatlarini hamda hosil bo'lgan termoelektr yurituvchi kuchlanishni o'rganishdan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida mikrozonli tahlil, ikkilamchi ionlar massalari spektrometri, rentgen fazali tahlil, infraqizil spektrometrlar, Xoll effekti, Ecopia HMS – 3000 qurilma asosidagi Van – der – Pau kabi zamonaviy usullar va tahlil qilish qurilmalaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ilk bor, monokristall kremniy sirtida o'stirilgan marganes oliy silitsidi tarkibidagi marganes kirishma atomlarining konsentratsiyasini diffuziya vaqti ( $t = 0,5 - 2$  soat va haroratini  $T = 950 \div 1200^\circ\text{C}$ ) o'zgartirish orqali boshqarish imkoniyati aniqlangan;

monokristall kremniy sirtida marganes oliy silitsidi qatlamidagi marganes atomlarining miqdorini, silitsid qatlamining qalinligini hamda kristall tuzilish holatini boshqarish asosida ilk bora  $Mn_4Si_7 - Si < Mn > - Mn_4Si_7$  tuzilishidagi strukturalarni marganes atomlarini vakuumda diffuziya qilish orqali olishning takrorlanuvchi texnologiyasi yaratilgan;

ilk bor, kremniy sirtida olingan marganes oliy silitsidining termo EYuK ni qiymati IQ nurlarni  $\lambda = 0,2 \div 20\text{mkm}$  ( $h\nu = 6,2 \div 0,62\text{ eV}$ ) to'lqin uzunligi oralig'ida yuqori va turg'un (o'zgarmas) bo'lishi, haroratni elektr kuchlanishga aylantirish koeffitsiyenti  $\lambda = 10,6\text{ mkm}$  to'lqin uzunligida eng katta  $S = 500 \div 2000\text{ mkV/Vt}$  qiymat oralig'ida va termo EYuK koeffitsiyentining o'rtacha qiymati  $a = 360\text{ mkV/K}$  ga teng bo'lishi aniqlangan;

ilk bor marganes oliy silitsidining elektrofizik parametrlari keng harorat  $T = 77 \div 900\text{K}$  oralig'ida o'rganilganda termoelektr yurituvchi kuchlanish koeffitsiyentining o'rtacha qiymati  $a \approx 360\text{ mkV/K}$  ga teng bo'lishi nazariy hisoblardan aniqlandi;

kremniy sirtida marganes kirishma atomlarini diffuziya qilganda marganes oliy silitsidini shakllanishining fizik mexanizmi taklif etildi;

monokristall kremniy sirtida hosil qilingan marganes oliy silitsidi asosida haroratni elektr tokiga aylantirish samaradorligi yuqori bo'lgan termobatareyalarni, hamda sezgirligi yuqori bo'lgan infraqizil nur fotopryomniklarni yaratish imkoniyatlari tadqiqotlar natijalari asosida ko'rsatib berildi.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Marganes atomlarining turli konsentratsiya qiymatida  $Mn_xSi_{1-x} - Si < Mn > - Mn_xSi_{1-x}$  strukturalarini olishning termodinamik shartlari va texnologik bosqichlari ishlab chiqilgan;

$Mn_4Si_7 - Si < Mn > - Mn_4Si_7$  strukturalar asosida yupqa qatlamli termobatareyalarni hamda sezgirligi yuqori IQ nur fotopriyomniklarni yaratish imkoniyatlari ko'rsatilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi:** Zamonaviy o'lchash va tahlil qilish usullarining bir – biridan mustaqil qo'llangaligi, o'lchangan tajriba natijalari va nazariy hisoblardan olingan kattaliklarni o'zaro va boshqa mualliflarning ilmiy tadqiqotlarining natijalari bilan mos tushishi hamda tajribalarning tahlili asosida marganes oliy silitsidini kremniy sirtida o'sishida taklif etilgan fizik mexanizm ilmiy tushintirilgani va yarimo'tkazgichlar fizikasini fundamental tasavvurlariga mosligi, tadqiqotlar asosida olingan ilmiy natijalar mutaxassislar ishtirokida xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlarda ma'ruzalar va muhokamalar qilinganligi asosida izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotda olingan natijalarning ilmiy ahamiyati hosil qilingan marganes oliy silitsid – kremniy tizimida va ularni o'tish chegarasida hosil bo'lgan qatlamning elektrofizik parametrlarini o'lchash, termo EYuKning qiymatini aniqlash, shuningdek, marganes oliy silitsid – kremniy chegarasida getroo'tish hosil bo'lishi, marganes oliy silitsidining fizik xususiyatlari yarimo'tkazgich xususiyati kabi bo'lishi, uning elektrofizik va fotoelektrik parametrlari hamda ta'qiqlangan sohasining qiymati zamonaviy o'lchashlar va nazariya hisoblar asosida aniqlandi hamda marganes oliy silitsidi qatlamining hosil bo'lishi ustida ko'plab tajriba kuzatuv ishlari bajarildi va statistik tahlillar tushuntirildi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, taklif etilayotgan samaradorligi yuqori termobatareyalarni hamda sezgirligi yuqori termodatchiklar va infraqizil nurlarni sezuvchi fotopriyomniklarni yaratish imkoni ko'rsatib berildi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Kremniy sirtidagi marganes oliy silitsidining elektrofizik va fototermik xususiyatlarini o'rganishda olingan tajriba natijalari asosida:

Monokristall kremniy sirtida hosil qilingan marganes oliy silitsidining elektrofizik parametrlari  $T = 77 \div 900K$  harorat oralig'ida, termoelektrik koeffitsiyentning o'rtacha qiymati  $a \approx 360$  mkV/Kga teng bo'lishi, bunday termobatareyalarni kremniy asosida yaratishda ishlab chiqilgan texnologik bosqichlar «FOTON» AJda yarimo'tkazgich asboblarni (diodlar, tranzistorlarni) olishdagi texnologiyada foydalanildi, bu ularning elektrofizik parametrlarini turg'un bo'lishiga olib keldi ( «FOTON» AJ ning 2022 yil 25 iyuldagi 211-son ma'lumotlar), yaratilgan texnologiyadan foydalanish asosida «FOTON» AJda ishlab chiqarilayotgan yarimo'tkazgich asboblarning olish texnologiyasini takomillashtirish imkonini berdi;

Monokristall kremniy sirtida olingan marganes oliy silitsidida hosil bo'lgan termoelektr yurituvchi kuchlanish tushayotgan quyosh nurining  $\lambda=0,2\div 20$  mkm to'liq uzunligi oralig'ida kuzatilishi asosida, "All Solar" MChJ da ishlab

chiqarilayotgan quyosh elementlarining orqa tomoniga marganes oliy silitsid – kremniy tuzilishidagi termobataryalar o‘rganilib, quyosh elementlarining qizishida ajralgan issiqlik hisobiga ishlaydigan termobataryea sifatida foydalanish mumkinligi ko‘rsatib berildi (“All Solar” MChJ ning 2022 yil 7 oktyabrdagi №S22-son ma’lumotlari). Dissertatsiya ishida aniqlangan ilmiy natijalarni amaliyotda foydalanish asosida “All Solar” MChJda kremniy asosida ishlab chiqarilayotgan quyosh panellarining elektr kuchlanish hosil qilish samaradorligi 11% ga ijobiy o‘zgarishga erishildi.


**Tadqiqot natijalarining aprobatyasi.** Dissertatsiya ishining natijalari 6 ta xalqaro va 3 ta respublika miqyosidagi ilmiy konferensiyalarda ma’ruza qilingan va muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 16 ta ilmiy ish, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta ilmiy maqola, jumladan 1 tasi Scopus ma’lumotlar bazasida kiritilgan xorijiy xalqaro jurnallarda nashr qilingan hamda tadqiqot mavzusi bo‘yicha 1 ta EHM uchun dasturiy guvohnoma olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to‘rtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 30 ta rasm va 9 ta jadvalni o‘z ichiga olgan holda, 120 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida bajarilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari hamda ob’ekt va predmetlari tavsiflangan, uning O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarning taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.



1 – rasm. a - Pelt’e effekti asosida termoelektrik kuchlanishni hosil bo‘lishi, b - Pelt’e effekti asosida yaratilgan termobataryaning tuzilishi.

Dissertatsiyaning **“Metall – yarimo‘tkazgich chegarasidagi marganes atomlarini qattiq fazali reaksiyalari, marganes oliy silitsid – kremniy struktursining elektrofizik xususiyatlari”** deb nomlangan birinchi bobida, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy va respublika jurnallarida chop etilgan ilmiy adabiyotlarning tahlili berilgan. Bu bobda turli mualliflar tomonidan marganes oliy silitsidining xususiyatlari, olish texnologiyasi, marganes atomlarini silitsid qatlamidagi joylashuvi hamda kremniy sirtida marganes kirishma atomlarini kremniy atomlari bilan o‘zaro qattiq fazali kimyoviy reaksiyalari haqidagi mavjud ilmiy ma’lumotlar berilgan, termobatareyalarda EYuK ni hosil bo‘lishi Pelt’e effekti asosida tushuntirib, fizik mexanizmi ochib berilgan.

Adabiyotlarning tahlili asosida, yarimo‘tkazgich materiallarni monoxramatik ( $h\nu \geq E_g$ ) yorug‘lik bilan yoritilganda qo‘shimcha issiqlik hosil bo‘lishi, agarda ikkala kontaktdagi haroratlar turlicha bo‘lsa, kontaktlar orasida elektr kuchlanishi hosil bo‘lishi aniqlangan (1-rasm) Bunday fizik hodisa Pelt’e effekti deb atalib, u asosida termobatareyalarni yaratish mumkinligi ko‘rsatib berilgan. I bobning oxirida dissertatsiyani bajarishda ilmiy yo‘nalish va vazifalar belgilab olingan.

Dissertatsiyaning **“Kremniy sirtida marganes oliy silitsidlarini olish texnologiyasi, dissertatsiyada foydalanilgan zamonaviy o‘lchash usullar va qurilmalar”** deb nomlangan ikkinchi bobida, kremniyga marganes kirishma atomlarini gaz holatidan diffuziya qilib marganes kirishma atomlari turli miqdorda (konsentratsiyada) bo‘lgan marganes oliy silitsid qatlamlarini olish, sirt va hajmda marganes kirishma atomlarining taqsimotini o‘rganish hamda marganes va kremniy atomlaridan tashkil topgan silitsidlarning tarkibi va elektrofizik parametrlarini o‘rganishda foydalanilgan zamonaviy usullar va qurilmalar haqida ma’lumotlar berilgan. Tajribalar asosida olingan natijalarni, adabiyotlardagi mavjud ma’lumotlar bilan o‘zaro solishtirishda aniqlangan o‘zaro mosligi asosida ilmiy xulosalar keltirilgan. Toshkent davlat texnika universitetining “Raqamli elektronika va mikroelektronika” kafedrasida so‘nggi yillarda olingan zamonaviy elektron qurilmalarning imkoniyatlari ko‘rsatib berilgan hamda marganes atomlarini kremniy atomlari bilan o‘zaro birikib hosil qiladigan silitsidlarining tarkibi haqida mavjud ilmiy xulosalar keltirilgan.

Dissertatsiya ishini bajarishda marganes kirishma atomlarini monokristall kremniyga diffuziyasi ikki xil mexanizm asosida amalga oshirildi. Birinchi diffuziya mexanizmi, marganes kirishma atomlari kremniy kristall panjarasidagi vakansiyalarda joylashgan boshqarib bo‘lmaydigan nuqsonlarni chiqarib ularning o‘rniga almashib o‘tirishi hisobiga sodir bo‘ladi deb taklif qilindi. Ikkinchi, diffuziya mexanizmi, kristall panjarada tugunlararo joylashgan kremniy atomlari bilan marganes kirishma atomlari o‘zaro ta’sirlashib monokristall kremniy sirtida marganes oliy silitsidlarini hosil qilishi bilan tushuntirildi.

Ilmiy adabiyotlarning tahlili asosida, yarimo‘tkazgich materialda vakansiyalar va tugunlar aro atomlar soni o‘zaro teng bo‘lsa, yuqoridagi ikki xil diffuziya mexanizmlarini bir vaqtda kuzatish mumkinligi aniqlandi.

Marganes kirishma atomlarini gaz holatidan monokristall kremniyga diffuziya qilishda taklif etilgan fizik mexanizmida, birinchi navbatda marganes kirishma atomlarining katta miqdordagi konsentratsiyasi kremniy sirtida qattiq fazani yupqa qatlamni hosil qilishi bilan tushuntirildi. Shundan so‘ng, diffuziya jarayonida birinchi bo‘lib  $Mn_xSi_{1-x}$  tarkibdagi birikmali silitsidlar hosil bo‘ldi. Bu holatda marganes kirishma atomlarining sirdagi diffuziyasi asosiy hisoblanadi. Ikkinchi navbatda hosil bo‘lgan qatlamda kremniy atomlarining miqdori kam bo‘lib, taglik kremniy sirtiga yaqinlashgan sari ularning miqdori ortib bordi. Kremniy hajmiga kirib borish chuqurligiga bog‘liq marganes kirishma atomlarining element fazasini taqsimoti 1-jadvalda ko‘rsatildi.

Marganes oliy silitsidi qatlamining element faza tarkibi

1- jadval


Qatlam qalinligi (mkm)	Atomlarni % dagi ulishi		Atomlarni massa og‘irligining % dagi ulishi	
	<i>Mn</i>	Si	<i>Mn</i>	Si
0	38,11	61,89	52,35	47,65
1	37,01	62,99	52,00	48,00
2	39,22	60,78	52,71	47,29
3	37,4	62,6	52,10	47,90
4	36,07	63,93	51,60	48,40
5	34,1	65,9	49,80	50,20
6	33,9	66,1	48,50	51,50
7	31,02	68,98	46,50	53,50
8	27,16	72,84	41,30	58,70
9	13,5	86,5	20,27	79,73
10	6,25	93,75	11,42	88,58
11	4,45	95,55	8,26	91,74
12	1,82	98,18	2,90	97,10
13	0,68	99,32	1,42	98,58
14	0,12	99,88	0,32	99,68

Dissertatsiyaning “**Marganes oliy silitsidining element tarkibi va strukturasi o‘rganish**” nomli uchinchi bobida, yarimo‘tkazgich kremniy sirtida elementlarning silitsid qatlamlarini olish usullari turli xil bo‘lgani bilan bu jarayonda albatta qattiq fazali kimyoviy reaksiya sodir bo‘lishi aniqlandi. Marganes oliy silitsid qatlamlarni kremniy sirtida bir necha bosqichda hosil bo‘lishi diffuziyaning texnologik jarayonlarining bosqichlarini o‘rganish hisobiga ekanligi aniqlandi. Boshlang‘ich monokristall kremniyning kimyoviy tozalangan sirtida marganes metall qatlami kimyoviy o‘tkazish yoki vakuumda changlantirish orqali hosil qilindi. So‘ngra kremniy namunalarga qo‘shimcha haroratli ishlov berib sirdagi marganes atomlarini kremniyning hajmiga kirishi va uning sirtida marganes atomlarining kremniy atomlari bilan birikishi natijasida marganes atomlarining silitsidlari hosil qilindi. Marganes atomlarini kremniyga kiritish ikki bosqichli diffuziya jarayonida,


birinchi harorat  $T \leq 400^{\circ}\text{C}$  gacha bo'lgan nisbatan past haroratda, ikkinchi yuqori haroratlarda  $T > 950 \div 1200^{\circ}\text{C}$  amalga oshirildi. Monokristall kremniy taglikda (kristall o'q yo'nalishi [001] va [111] bo'lgan) marganes kirishma atomlarining silitsid qatlamini hosil qilishdagi ikkinchi bosqich diffuziya jarayoni  $t = 30$  minut vaqt oralig'ida amalga oshirilib, marganes kirishma atomlarini kremniy bo'yicha ikki ko'rinishdagi taqsimoti olindi. Bunda, birinchi marganes oliy silitsidi kremniyning sirti va sirt oldi qatlamidagi taqsimot bo'lib, undagi marganes atomlarining konsentratsiyasining miqdori  $N_{Mn} = 10^{18} \div 10^{20} \text{ sm}^{-3}$  oralig'ida bo'ldi va bu qiymat tok tashuvchi kovaklarning konsentratsiyasiga teng bo'ldi. Ikkinchi taqsimot qismi, kremniy hajmida teng taqsimlangan marganes atomlarining konsentratsiyaning miqdori  $N_{Mn} = 10^{14} \div 10^{16} \text{ sm}^{-3}$  oraliqda va  $p$  – turdagi elektr o'tkazuvchanlikka ega bo'lgan strukturalar olindi.

Hosil bo'lgan marganes oliy silitsidining strukturasi, topologiyasi, sirt oldi qatlamning faza tarkibi EMR -102 rusumli elektron mikroskopda hamda UXA-840 va X4 30 SFEG rusumli elektron mikroanalizatorlarda o'rganildi. Olingan elektronogrammalarni mavjud ilmiy adabiyotlardagi ma'lumotlar bilan solishtirish asosida marganes oliy silitsidining atom tekisliklarining orasidagi masofa aniqlandi. Kremniy namunalarini sirtida marganes oliy silitsidlari ko'proq  $Mn_4Si_7$  tuzilishdagi tarkibda bo'lishi ilmiy tahlillar va tajribalar asosida aniqlandi. Hosil bo'lgan marganes oliy silitsidi qatlamining qalinligi va donachalar ko'rinishida alohida – alohida bo'lishi yopiq kvarts ampulasiga solingan marganes kirishma atomlarining diffuziya jarayonidagi bug' holatining bosimiga hamda diffuziya harorati va vaqtiga bog'liq bo'lishi aniqlandi.

2 – rasmda yopiq (vakuum olingan) kvarts ampulalarda ( $P=10^{-5} \div 10^{-6}$  mm.smb.ust) kremniy sirtida o'stirilgan marganes oliy silitsidi hosil qilgan qatlamning topologiyasi berildi. 2 (a) – rasmdagi sirt topologiyasi marganes atomlari hosil qilgan oliy silitsid qatlami, diffuziya qilingan marganes atomlarning og'irligi shartli ravishda  $m_{Mn}^1$  qilib tanlab olindi. 2(b) – rasmdagi sirt topologiyasi diffuziya jarayonida marganes atomlarining shartli og'irligi birinchi holatga nisbatan ikki barobar ko'p  $m_{Mn}^2 = 2m_{Mn}^1$  bo'lgan holatda olindi. Elektron mikroskop tasvirlari ilmiy tahlil qilganda,  $m_{Mn}^1$  – shartli og'irlikdagi birinchi holatda kremniy sirtidagi silitsid donachalarining o'lchamlari  $5 \div 20$  mkm oralig'ida bo'lgan polikristall tuzilishdagi uzluksiz qatlam hosil bo'lishi aniqlandi.  $m_{Mn}^2$  – shartli og'irlikda marganes kirishma atomlari solingan kvarts ampulalarda o'tkazilgan diffuziyadan so'ng kremniy sirtida marganes oliy silitsidi alohida orolchalar ko'rinishida monokristall tuzilishda hosil bo'ldi (2-rasm. b ko'rinish).



a)



b)


**2-rasm. Monokristall kremniy sirtida hosil bo'lgan marganes oliy silitsidining topologiyasi, a-polikristall tuzilishida b-monokristall tuzilishida.**

Kremniyga marganes kirishma atomlarini diffuziya qilib olingan  $Mn_xSi_{1-x}$  –  $Si < Mn >$  –  $Mn_xSi_{1-x}$  strukturalarni hosil bo'lishi voltamper xarakteristikasi (VAX) ni o'lchash natijalarida ham o'z tasdig'ini topdi. Marganes kirishma atomlari bilan legirlangan va diffuziyadan so'ng turli tezliklarda sovitilgan kremniy strukturalarning VAX deyarli bir xil ko'rinishda bo'ldi.

Strukturalar diffuziyadan so'ng ikki xil tezlikda sovitilganda taglik kremniy sirtida hosil bo'lgan marganes oliy silitsid qatlami shuntlash xususiyatiga ega bo'lib, taglik kremniyning elektrofizik parametriga ta'sir ko'rsatdi va VAX da tokning kuchlanishga bog'liq o'sishi boshqa ko'rinishda bo'ldi. Tajriba natijalarini taxlili hamda olingan natijalarni boshqa mualliflarning ilmiy ishlari bilan solishtirib, kremniy sirtida o'stirilgan marganes oliy silitsid qatlami va monokristall kremniy tagligi orasida yuqqa o'tish qatlamida kremniy – bor – marganes atomlaridan iborat yuqori qarshilikdagi yuqqa o'tish qatlamida hosil bo'lishi aniqlandi.

3 - rasmda kremniy sirtida marganes oliy silitsidini hosil bo'lish jarayoning mexanizmi tushuntirildi. Marganes oliy silitsidini kremniy sirtida hosil bo'lishining asosiy sabablardan biri, metall silitsidlarining qattiq fazalaridagi atomlar taglik materialning atomlari bilan sodir bo'ladigan o'zaro kimyoviy reaksiyaga bog'liq bo'ladi. Marganes kirishma atomlari kremniy oksid qatlami sirtida kremniy atomlari bilan o'zaro birikib birikmalarni hosil qilishi kuzatildi.

Marganes atomlari sublimatsiyalanuvchi metall bo'lgani sababli kremniyning erish haroratidan ancha past  $T = 940^\circ\text{C}$  haroratda gaz – bug' holatiga o'tadi. Shu sababli kremniy oksidi sirtidan marganes atomlarining bug'lanish ehtimoli katta bo'lib, oksid qatlam sirtidan qayta bug'lanib gaz holatiga o'tishi mumkin. Yuqori haroratlarda ( $T = 1000 \div 1200^\circ\text{C}$ ) gaz – bug' holatidagi marganes atomlari kremniy tagligiga urilib sirtidan qaytadigan miqdori katta bo'ladi. Kremniy sirtiga urilgan marganes atomlarining kinetik energiyasini asosiy miqdori yo'qoladi va kremniy atomlari bilan o'zaro bog'lanishi uchun yetarli darajadagi energiyaga ega bo'ladi. Taglik sirtida kremniy atomlari bilan bog'langan marganes atomlari hosil bo'lsada, ularni soni nisbatan kam bo'lgani sababli silitsid murtagini shakllanishiga imkon bermaydi.




**3-rasm. Kremniy sirtida marganes oliy silitsidini hosil bo'lishi mexanizmining modeli**

bilan birikib kristallanish markazlarini (murtaklarini) hosil qiladi, bu jarayon marganes oliy silitsid qatlamini hosil bo'lishiga sabab bo'ladi.

Olingan  $Mn_xSi_{1-x} - Si < Mn > - Mn_xSi_{1-x}$  strukturalarning kimyoviy potensialini hisoblaganda, Fermi sathi taglik kremniyning valent sohasida joylashib,  $0,01 eV$  energiya qiymatiga teng bo'ldi (ya'ni  $kT = 0,402 eV$  dan kichik bo'ldi). Bu holatda silitsid donachalari orasidagi potensial to'sig'ning qiymati  $E_F = 0,06 eV$  ga teng bo'ldi. Donachalar orasidagi potensial to'siqlarning aniqlangan qiymatidan shuni aytish mumkinki, haroratni oshishi bilan elektroo'tkazuvchanlik ( $\sigma$ ) va zaryad tashuvchilarning harakatchanligi ( $\mu$ ) faollashish xususiyatiga ega bo'lib, quyidagi qonuniyat asosida o'zgarishi aniqlandi:  $\mu = \mu_0 \exp\left(\frac{E_{act}}{kT}\right)$ . Bu formula -dan foydalanib, kristall marganes oliy silitsid qatlamidagi tok tashuvchi kovaklarning harakatchanligini harorat ta'sirida o'zgarish qonunyati ko'rsatib berildi va fizik mexanizmi tushuntirildi. Marganes oliy silitsidining termo EYuK  $\alpha$  -koeffitsiyentining qiymatini harorat kamayishi bilan oshishi hosil bo'lgan silitsid qatlamning issiqlik o'tkazuvchanligini kamayishi bilan tushuntirildi. Kremniy tagligida o'sgan marganes oliy silitsidining termo EYuK koeffitsiyenti va issiqlik o'tkazuvchanligini o'zaro bog'langan parametrlari hisoblandi. Bu ulardan tashqari tok tashuvchi kovaklarning konsentratsiyasi va harakatchanligi ham kremniy sirtida

Gaz - bug' holatidagi marganes atomlarining oqimining kinetik energiya -sining qiymati kichik bo'lganligi sababli oksid kremniy ( $SiO_2$ ) bilan mustahkam bog' hosil qilmaydi. Oksid kremniy -ning qatlami qalin bo'lganligi sababli, taglik kremniydan kremniy atom-larini sirtga diffuziyasining ehtimoli kam bo'ladi. Har qanday kremniy sirtida yupqa oksid qatlam bo'lgani sababli, yupqa oksid kremniy qatlamidan marganes kirishma atomlari osonlik bilan o'tib kremniy sirtidagi atomlar bilan birikib silitsid hosil qiladi. Yuqori haroratlarda kremniy sirtidagi atomlardan tashqari bog'lanmagan erkin kremniy atomlari mavjud bo'lib, bu atomlar marganes atomlari

hosil boʻlgan marganes oliy silitsidining asosiy elektrofizik parametrlardan ekanligi aniqlandi.



**4 – rasm. Marganes atomlari diffuziyasidan soʻng olingan strukturalarning volt-amper xarakteristikasi.**

**MOS – Si – MOS** strukturaga ega boʻlib, 1-tez sovitilgan, 2-sekin sovitilgan hamda kremniy tagligida hosil qilingan marganes oliy silitsidida olindi.

**Natijalar harorat  $T = 300K$  va qorongʻilikda oʻlchandi.  $MOS – Mn_xSi_{1-x}$  belgilandi.**


kristallanishi aniqlandi.

Taglik kremniyning strukturasi oʻsayotgan binary birikmali marganes oliy silitsid ( $Mn_4Si_7$ ) qatlamining strukturasi moslashuvi natijasida oʻsayotgan silitsid qatlam monokristall yoki polikristall holatda boʻlishi koʻrsatib berildi. Kremniy sirtida oʻsadigan marganes oliy silitsidlari taglik monokristall kremniyning hajmiga hamda sirtiga qarab oʻsishi aniqlandi. Bunda hosil boʻlgan silitsid qatlam qalinlikning ~55% hajmga, ~45 % sirtida oʻsishi kuzatildi. Bu holat kremniy atomlari kristall panjara tugunidan chiqib vakansiya hosil qilishi va oʻsayotgan sirt tomoniga qarab diffuziya hisobiga koʻchish mexanizmi bilan tushintirildi.

Dissertatsiyaning **“Marganes oliy silitsid – kremniy oʻtish chegarasida hosil boʻlgan getrooʻtish asosida olingan fotodiodlarni xususiyati va ular asosida yaratilishi taklif etilgan qurilmalar”** deb nomlangan toʻrtinchi bobida, marganes oliy silitsid – kremniy oʻtish chegarasidagi ikki xil fazani bir biridan farqi nafaqat ularning elektrofizik parametrlarini turli xil boʻlishiga, balki, bu fazalardagi materiallarning taqiqlangan soha energiyasining qiymatlari ham turlicha boʻlishi bilan ajralib turishi koʻrsatib berildi. Tajriba natijalarining ilmiy tahlili shuni koʻrsatadiki,  $Mn_4Si_7$  birikmali marganes oliy silitsidining xususiyatlari yarimoʻtkazgich materillarning xususiyatlari kabi boʻlib, uning taqiqlangan sohasining energetik qiymati, silitsid qatlamni va taglik kremniy elektroʻtkazuvchanligi hamda Xoll koeffitsiyentini harorat taʼsirida oʻzgarishi asosida

Gaz faza holatidan marganes kirishma atomlarini kremniy sirtida oʻsib kristallanishida taglik kremniy strukturasi taʼsiri kattaligi tajriba natijalari asosida aniqlandi. Kremniy sirtida oʻsayotgan marganes oliy silitsidi qatlamida haroratni nisbatan yuqori boʻlishi hisobiga kremniy sirtidagi marganes atomlari kristallanib qattiq holatga oʻtishiga qadar sirtida maʼlum masofaga koʻchib harakatlani shi aniqlandi (3-rasm). Marganes kirishma atomlarini kremniy sirtida koʻchib harakatlanish ehtimoli katta boʻlgani sababli, hosil boʻlgan kristallanish murtagi (zarodsh) taglik kremniy strukturasi tuzilishida

aniqlandi. Bunda marganes oliy silitsidining taqiqlangan sohasining energetik qiymati  $E_g \approx 0,67 \div 0,8 \text{ eV}$  oralig'ida bo'lishi hamda yarimo'tkazgich kremniyga o'tish chegarasida getroo'tishni hosil qilishi ko'rsatib berildi (5-rasm).




**5-rasm. Marganes oliy silitsidi va monokristall kremniy o'tishi chegarasida hosil bo'lgan getroo'tishning sohalar diagrammasi,  $E_{g1} \approx 0,67 \div 0,8 \text{ eV}$ ,  $E_{g2} = 1,12 \text{ eV}$  ( $E_{g1} - \text{Mn}_4\text{Si}_7$ ,  $E_{g2} - \text{Si}$ ).**

Marganes oliy silitsidi qatlamini kremniy sirtida hosil qilish uchun boshlang'ich namuna sifatida elektronika sanoatida ishlatiladigan KDB – 10 markali monokristall kremniy ishlatildi. Yaratilgan ikki bosqichli diffuzion texnologiya asosida kremniyning ikki sirtida marganes oliy silitsidlarining qatlamlari hosil qilindi. Bunda marganes oliy silitsidi qatlamining qalinligi  $d \approx 5 \div 7 \text{ mkm}$  oralig'ida bo'ldi. Hosil bo'lgan marganes oliy silitsidining o'tkazuvchanligi  $p$  – tur,

tok tashuvchi kovaklar hisobiga bo'lib, ularning konsentratsiya miqdori  $p \approx 10^{19} \div 10^{20} \text{ sm}^{-3}$  oralig'ida bo'ldi. Tajriba natijalarini tahlili asosida kremniy sirtida hosil bo'lgan marganes oliy silitsid qatlamini, kuchli legirlangan aynigan yarimo'tkazgich sifatida qarash mumkin deb taklif etildi.

Tajribalarda olingan strukturalarning baza qarshiligi ikki zond usuli bilan o'lchanganda oliy marganes silitsidlari hosil bo'lgan kremniy tagligining (bazani) solishtirma qarshiligi  $\rho_\delta \approx (2 \div 5) \cdot 10^4 \text{ Om} \cdot \text{sm}$  oralig'ida bo'lib, nazariy hisoblarga yaqin qiymatni berdi. Olingan strukturalarning bazasidagi tok tashuvchilarning konsentratsiyasi va harakatchanligini aniqlash maqsadida Xoll koefitsiyentini turli haroratlarda va fotovolt – amper xarakteristikasi integral yorug'likning turli qiymatlarida o'rganildi (6-rasm).



6 – rasm. Fotovolt-amper xarakteristika turli holatlarda va harorat  $T=80\text{ K}$  o'lchash natijalari, 1 –  $p^+ - Si < Mn > -p^+$  struktura bazasining kengligi  $70 \div 75\text{ mkm}$  bo'lganda va yoritilgan holatda, 2 –  $p^+ - Si < Mn > -p^+$  strukturaning qorong'u holatidagisi, 3 –  $p^+ - Si < Mn > -Mn$  struktura yuzasining kengligi  $1,5\text{ mkm}$  va to'g'ri kuchlanish ulanganda, 4 –  $p^+ - Si < Mn > -Mn$  struktura yuzasining kengligi  $5000\text{ mkm}$  va to'g'ri kuchlanish ulanganda, 5-  $p^+ - Si < Mn > -Mn$  struktura yuzasining kengligi  $5000\text{ mkm}$  va teskari kuchlanish ulangandagi holat, bunda  $p^+ - Mn_4Si_7$  marganes oliy silitsidini bildiradi

